

## ABDULLA ORIPOV POETIKASIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI

*Ravshonbekova Gulmira*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti  
Filologiya va san'at fakulteti, o'zbek tili ta'lif yo'naliши  
2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mahoratli shoir Abdulla Oripov she'riyatidagi tarixiy shaxslar obrazi xususida so'z boradi. Tarixiy siymolarni yoritishdagi ijodkor mahorati aniq misollar va namunalar yordamida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Oripov, tarixiy shaxslar, vatanparvarlik, "Qodiriy", "Alisher", "Temur bog'lari", "Bilol Habash", "Qirg'iz diyori", "Maxtumquli" she'rlari.

**KIRISH.** O'zbek adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri bo'lmish Abdulla Oripov ijodi o'zbek xalqining ruhiy olami, tarixiy xotirasi va milliy o'zligining badiiy ifodasidir. A. Oripov she'rlarining mazmuni boyligi va rang-barangligi bilan ahamiyatlidir. Ijodkorning asarlarida ko'pincha vatan, millat, til, mustaqillik kabi mavzular uchraydi. U o'z xalqining milliy o'zligini shakilantirishni ta'minlash, tarixiy shaxslar haqida kitobxonlarga yetkazishni maqsad qilgan. Ko'pgina she'rlarida nafaqat bugungi zamon, balki o'tgan tarix sahifalari, ulug' ajdodlar siymosi ham o'z aksini topgan.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Shoir o'z poetikasida tarixiy shaxslar obrazini yaratish orqali xalqning tarixiy ongini uyg'otish, milliy g'ururni mustahkamlash kabi ezgu maqsadlarni ko'zlagan. Shoir o'z asarlarida xalqining o'tmishi bilan faxrlanishini tez-tez ta'kidlaydi. U she'rlarida Beruniy, Ulug'bek, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Zulfiya, Asqad Muxtor, G'afur G'ulom, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Maxtumquli kabi tarixiy shaxslar nomini tilga oladi. Ijodkor "Qodiriy" nomli she'rida A.Qodiriyga yuz ming jannat ravo bo'lishini va Xudo bu yozuvchi uchun bundan ko'pini berishini, chunki u shuncha yil do'zaxiy kimsalar bilan yashab, ularga chidab kelganini ta'kidlaydi.

Sizga yuz ming jannat bo'lgaydir ravo,  
Balki bundan ko'pin bergaydir Xudo.  
Shuncha yil do'zaxi kimsalar bilan  
Chidab yashadingiz, Qodiriy bobo!" [7]

Shoir "Alisher" nomli she'rida esa dunyoda nom qoldirish uchun vatanni buzish shart emas, degan naql haqiqat deydi. Ba'zilar nayzaning kuchi bilan maqtansa-da, Alisher Navoiy faqat qalamini ko'rsatganligini yozadi:

Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun  
Yurt buzish shart emas, degan gap-ku, rost.  
Kimdur pesh qilganda nayzaning kuchin,  
Alisher qalamni ko'rsatgan xolos. [2]

Bu misralar orqali “So‘z mulkining sulton” bo‘lmish Alisher Navoiyning qalami o‘tkir va butun bir ijodi va yaxshi amallari orqali bu dunyo tarixida o‘zidan buyuk nom qoldirib ketganiga amin bo‘lamiz.

A.Oripovning “Haj daftari” to‘plamiga kiritilgan “Bilol Habash” she’rida esa Bilol roziyollohu anhu haqida so‘z boradi. Payg‘ambar ummati — qora tan Bilol hamisha Rasulga kamarbasta bo‘lganligini, rost yo‘ldan hech qachon qaytmaganligini, azonni yakka bo‘lib aytgani va sadoqatli inson bo‘lganini yozadi shoir. Va she’r ushbu voqeal bilan yakunlanadi:

Rasuldan so‘rashdi: Bu qora habash,  
Jannat chehrasiga yarashgay qandoq?  
Javob shunday bo‘ldi:— So‘ylangiz bilib,  
Uning oq dilida iymon ohangi.  
Jannat hurlariga qora xol qilib,  
Bo‘lib berilgandir Bilolning rangi. [6]

“Temur bog‘lari” she’rida shoir: Amir Temurni mag‘lub bo‘lsa ham g‘alaba qozonsa bo‘lsa ham uning mutlaq tarixda qayd etilishini bildiradi. Samarqand shahrini me’morga qiyoslaydi va uning ijodi Registon va Shohizinda ekanligini yozadi. Shu bilan birga, bobokolonimiz qurdirgan “Bog‘i behisht” va “Bog‘i shamol” obidalari ham shu yerda ekanligi va bu yodgorliklar ulug‘ moziydan ekanligini ta’kidlaydi.

Mag‘lub bo‘lasanmi va yoki g‘olib,  
Tarixda qolgaydir oyog‘ing gardi.  
Temurning bog‘lari goho yo‘qolib,  
Gohida: - Men bor, deb zimdan ko‘kardi.  
Garchi Samarqand bu - aslida me’mor.  
Ijodi - Registon, Shohizindadir.  
Lekin, ahli jahon, aylang e’tibor:  
Temur bog‘ari ham axir, bundadir!  
U — Bog‘i behishtdir, u — Bog‘i shamol,  
Barchasi yodgordir ulug‘ moziydan. [3]

A.Oripovning Chingiz Aytmatovga atalgan “Qirg‘iz diyori” she’rida: azamat Manas yurtiga, To‘qtag‘ulning vataniga, Alpomish va Navoiy yurtidan salom yo‘llaydi. U o‘zbeklarning nomidan qig‘izlar yurtiga mehr-muhabbatini yetkazadi, uni o‘z yurtini baland tog‘lar diyori, moviy ko‘llar maskani deb ta’riflaydi. Olatovning

qirg'izlar boshidagi oq qalpoqdek qor bilan jimirlab turganini, yam-yashil tekisliklarida behisob oppoq yaylovlar borligini, havosi qirg'iz xalqining qalbidek musaffoligini, noyob asarlari bilan Chingiz nominining dunyoga ma'lum ekanini ta'-kidlaydi:

Azamat Manas yurti, To‘qtag‘ulning vatani,  
Alpomish va Navoiy yurtidan senga salom.  
Yuksak tog’lar o‘lkasi, moviy ko‘llar maskani -  
Qirg‘izlar diyoriga o‘zbeklardan ehtirom.  
Mangu oppoq qor bilan yaltiraydi Olatov,  
Bamisol qirg‘izning boshidagi oq qalpoq.  
Yam-yashil yaylovlarda son-sanoqsiz oq o‘tov  
Qirg‘iz xalqin qalbiday beg‘uboru toza, pok.  
Butun dunyo biladi ijodkor Chingiz nomin,  
Azamat xalq, shuhrating bundan ham bo‘lsin ziyod. [4]

Oripov “Maxtumquli” nomidagi she’rida: “shoir ukam, Maxtumqulini o‘qi” deb xitob qiladi. So‘ngra shoir insonni hayotga, ya’ni “ko‘hna olam”ga bepisand, mensimay qarashdan ogohlantiradi. Hayotni to‘liq anglamasdan, uning barcha mashaqqatlarini his etmasdan turib, unga loqayd qarash, uni past baholash – bu nodonlik belgisi sifatida baholanadi. “Qismat qo‘lidan may ichmoq” iborasi hayot taqdirining shirin-achchiq sinovlaridan to‘liq bahramand bo‘lish, tajriba orttirish, hayotni chin yurakdan his qilish ma’nosida ishlatilgan. Shoir hayotning murakkab yo‘llarini hali bosib o‘tmagan, taqdirning sinovlarini to‘liq tatib ko‘rmagan kishining keskin bahosini noo‘rin deb biladi. Ikkinchchi bandning uchinchi va to‘rtinchchi misralarda esa shoir ijodkorga murojaat qiladi: faqat o‘zing bilgan, his qilgan, boshdan kechirgan narsalarnigina qog‘ozga tushirishni, ya’ni hayotiy haqiqatdan yiroq bo‘lmaslikni tavsiya qiladi va bunga Maxtumquli ijodini misol qiladi:

Shoir ukam, o‘qi, Maxtumqulini,  
Hikmatga yo‘g‘rilgan pandu nasihat.  
G‘animat demish u umr yo‘lini,  
Ha, umr o‘tkinchi, umr g‘animat.  
Bepisand boqmagil ko‘hna olamga,  
Hali may ichmabsan qismat qo‘lidan.  
Faqat bilganingni olgil qalamga,  
Buni ham o‘rgangil Maxtumqulidan.[5]

**XULOSA.** Oripov tarixiy obrazlar orqali yosh avlodni tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetkazish vazifasini ham bajaradi. U tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati orqali haqiqatparvarlik, vatanparvarlik, sadoqat va

jasorat kabi tuyg‘ularni uyg‘otadi. Abdulla Oripov poetikasida tarixiy shaxslar obrazining yaratilishi — bu shunchaki badiiy uslub emas, balki ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy vazifani bajargan katta hodisadir. Shoir o‘zining she’riy iste’dodi orqali o‘zbek xalqining ulug‘ tarixini, buyuk shaxslarini e’zozlaydi, ular orqali bugungi kun yoshlariga milliy g‘urur, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg‘ularini singdiradi. Bu esa Oripov ijodining mangu qiyomatga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. 5 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2000.
2. Oripov A. Adolat ko‘zgusi, she’rlar, maqolalar, suhbatlar, tarjimalar. (Red. Doniyor Begimqulov) Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2005.
3. Oripov A. Bedorlik, she’rlar. (Red. Doniyor Begimqulov) Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1999.
4. Oripov A. Birinchi muhabbatim. (Red. Laziz Tangriyev) Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2006.
5. Oripov A. Hayrat. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.
6. Орипов, Абдулла. Ҳаж дафтари. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1992.
7. Qo‘shjonov M. ve Meli, S. Abdulla Oripov. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000.
8. Usmonov S. O‘zbek she’riyati va tarixiylik. – Toshkent: Fan, 2011.
9. Internet manbalari: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz), [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)